



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-fevral

77-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni ijrosi haqida”gi 75-6-0-Q/25-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 75-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 75-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni bilan: belgilanishicha, 2025-yil 1-apreldan boshlab:

a) “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari orqali ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamlar Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalarga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog‘liqni saqlash bo‘yicha ijtimoiy yordamlar esa - oylik daromadi oila a‘zolarining har biriga minimal iste‘mol xarajatlari miqdorining 2 baravaridan ko‘p bo‘lmagan oilalarga ham taqdim etilishi;

bunda madaniy-ma‘rifiy, ta‘lim, sport va turizm tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishga “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tushumlarining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini yo‘naltirishga ruxsat berilishi;

b) “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari orqali ijtimoiy yordamlar quyidagi tartibda ko‘rsatilishi: oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejada kambag‘al oilalarning yoshlari va xotin-qizlariga muayyan ijtimoiy yordamlarning belgilanishi ushbu toifadagi shaxslardan qo‘shimcha murojaat talab etmagan holda “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari hisobidan ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilishiga asos bo‘lishi;

“Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari hisobidan ijtimoiy yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qilgan shaxslarning ijtimoiy holatini aniqlash “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali, oilaning moliyaviy holatini esa - idoralararo axborot almashinuvi orqali avtomatik ravishda baholash (skoring) natijalariga muvofiq amalga oshirilishi;

2025-yil 1-apreldan boshlab Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar uchun “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari orqali qo‘llab-quvvatlashning quyidagi yangi instrumentlari joriy etilishi;

a) kamida 3 nafar xotin-qizlar, yoshlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining bandligi hamda ijtimoiy faolligini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun tegishincha “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 60 baravarigacha grantlar ajratishi;

b) “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hisobidan: nogironligi bo‘lgan yoshlarga pasport to‘garaklariga qatnashishi uchun yo‘l haqi xarajatlarini har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha miqdorda qoplab berilishi. Bunda nogironligi bo‘lgan yoshlarning pasport to‘garaklariga qatnashishi Sport vazirligining “ERP-sport” axborot tizimi orqali monitoring qilib borilishi;

6 oy davomida muntazam ravishda sport va san'at to'garaklariga qatnashayotgan yoshlar uchun qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan oshmaydigan maxsus sport forma, inventar, musiqa va cholg'u asboblari xarid qilishi;

d) yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa texnogen hodisalar oqibatida zarar ko'rgan oilalarga uy-joylarini tiklash va ta'mirlash xarajatlarini qoplash uchun "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi orqali bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha bo'lgan miqdorda yordam ko'rsatishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

2025-yil 1-apreldan boshlab "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun to'lanadigan ssuda va subsidiyalar Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilishi;

2025-yil 1-apreldan boshlab "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab esa "Ayollar daftari" jamg'armalari orqali to'lanadigan bir martalik moddiy yordamlar o'rniga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kam ta'minlangan oilalar uchun nazarda tutilgan nafaqalar to'lanishi;

bunda tegishli nafaqalarni tayinlash va to'lash uchun boy muddat davomida Kambag'al oilalar reestridagi oilalar a'zolarining bandligi ta'minlanganligi holati inobatga olinmasligi; belgilab qo'yilishicha, 2025-yil 1-maydan boshlab "Ijtimoiy daftarlari" jamg'armalari hisobidan davolash va jarrohlik amaliyotini o'tkazish xarajatlari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali quyidagi shartlar asosida moliyalashtirilishi;

"Ijtimoiy daftarlari" jamg'armalaridan tegishli mablag'larni Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga ko'chirish, ushbu jamg'arma tomonidan qonunchilikka muvofiq belgilangan tibbiyot tashkilotida davolash yoki jarrohlik amaliyoti o'tkazilganidan so'ng amalga oshirilishi;

"Ijtimoiy daftarlari" jamg'armalari hisobidan jarrohlik amaliyoti uchun o'tkaziladigan mablag'lar miqdori qonunchilikka muvofiq Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan qoplanadigan bazaviy narxlar doirasida belgilanishi;

davolash va jarrohlik amaliyotini o'tkazish xarajatlari 14-30 yoshdagi shaxslar uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari, 30 yoshdan katta bo'lgan xotin-qizlar uchun "Ayollar daftari" jamg'armasi mablag'lari, boshqa ehtiyojmand shaxslar uchun "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

"Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari orqali ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va Yoshlar ishlari agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda mazkur Farmonga muvofiq joriy etilayotgan yordamlarni ajratish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining quyidagi takliflari ma'qullanganligi;

a) 2025-yil 1-apreldan boshlab Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam o'rniga ushbu hududlarda yashovchi Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarga uy-joyida artezian quduq qazish, suv nasoslarini o'rnatish hamda ichimlik suv filtrlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibini joriy etishi;

bunda mazkur subsidiya artezian quduq qazish, suv nasoslarini o'rnatish hamda ichimlik suv filtrlarini xarid qilish xarajatlarining 90 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda ajratilishi;

b) 2025-yil 1-maydan boshlab ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdoridagi bir martalik nafaqa pulini uni tayinlashning amaldagi tartibi saqlab qolingan holda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali to'lashi;

d) tuman (shahar) hokimliklari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armalarini tashkil etilishi;

Agentlik:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yashovchi Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarga uy-joyida artezian quduq qazish, suv nasoslarini o'rnatish hamda ichimlik suv filtrlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini;

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan ijtimoiy yordam va xizmatlar hamda imtiyozlarni Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarga ham tatbiq etish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

b) Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1-dekabrga qadar ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarning ijtimoiylashuvini ta‘minlash hamda bir martalik nafaqa pulini ularning moddiy va mulkiy holatidan kelib chiqqan holda tayinlash yuzasidan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritishi;

Ichki ishlar vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Agentlik bilan birgalikda 2025-yil 1-martga qadar ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolar haqidagi ma‘lumotlar bazasini “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimiga integratsiya qilishi belgilab qo‘yilganligi;

2025-yil 1-martdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6118-son Farmonining 12-bandiga muvofiq “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalariga yo‘naltiriladigan mablag‘larni taqsimlashning shunday tartibi joriy etilishi va unga muvofiq:

yo‘naltirilishi belgilangan mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)lardagi aholi soni va Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar soniga mutanosib ravishda “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalariga o‘tkazilishi;

yo‘naltirilishi belgilangan mablag‘larning 70 foizi tuman (shahar)dagi aholi soni, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni va Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar sonidan kelib chiqib, tuman va shaharlardagi “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalariga teng ulushda o‘tkazilishi. Bunda mablag‘larni tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlash tuman (shahar)ning toifasi, uning ixtisoslashuvi hamda kichik biznes uchun yaratilgan sharoitlardan kelib chiqib belgilanadigan tuzatish koeffitsientlarini qo‘llagan holda amalga oshirilishi;

belgilanishicha, mazkur bandga muvofiq “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalariga yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari qarorlari asosida amalga oshirilishi;

“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari hamda “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarga ruxsat berilishi;

a) “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari hamda “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan xaridlarni amalga oshirishda tovar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib beruvchilarni maxsus axborot portalida e‘lon joylashtirmasdan va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlashi;

b) “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari mablag‘larini tuman (shahar) “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda iqtisodiyot va moliya bo‘limlari bilan kelishgan holda quyidagi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirishi;

tuman (shahar)da aholining hayot kechirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishi;

tuman (shahar)da sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirishi;

ekologiya va atrof-muhitni asrash, aholi salomatligi va sanitariya- gigiyena sharoitini yaxshilashga qaratilgan hamda boshqa zarur tadbirlarni moliyalashtirishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari va “Ijtimoiy daftarlar” jamg‘armalariga yo‘naltirilgan mablag‘larning Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida ochilgan yagona maxsus hisob varaqda yig‘ilishini;

yig‘ilgan mablag‘lar mazkur Farmonning 8-bandida belgilangan ko‘rsatkichlarga mutanosib "Ijtimoiy daftarlar" jamg‘armalariga avtomatik ravishda teng taqsimlanishini ta‘minlashi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mingbuloq tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abduraxmonov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni talablari asosida ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**